


yanvar-noyabr 2019-yil

Hozirgi vaqtida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi jamiyatning jadal rivojlanish mezoniga aylandi. Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini, investitsiya muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilashga yordam beradi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 12225,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo (31,5%), transport xizmatlari (25,7%), moliyaviy xizmatlar (12,7%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2,4%) ustunlik qilmoqda.

## 2019-yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish  
(2019 yil yanvar-noyabr oyi uchun)**


	Hajmi, mlrd. so'm	2018 yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan % hisobida	yakunga nisbatan % hisobida
--	----------------------	--	-----------------------------------

<b>Jami xizmatlar</b>	<b>12 225,2</b>	<b>107,8</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	300,5	106,4	2,4
moliyaviy xizmatlar	1 556,3	146,8	12,7
transport xizmatlari	3 139,2	102,0	25,7
shu jumladan: avtotransport xizmati	3 018,8	101,9	24,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	545,3	109,1	4,5
savdo xizmatlari	3 847,7	102,1	31,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	425,2	100,3	3,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	347,8	108,4	2,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	253,9	106,7	2,1
ijara xizmatlari	378,5	100,6	3,1
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	277,5	101,7	2,3
shaxsiy xizmatlar	345,1	100,1	2,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	411,0	133,1	3,4
boshqa xizmatlar	397,2	99,5	3,2

**2019 yil yanvar-noyabr oyida alohida xizmat turlari  
hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm**



**2019 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



2019 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha me'morchilik sohasidagi xizmatlar (133,1 %), moliyaviy xizmatlar (146,8 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (106,7 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (109,1 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Eng past o'sish sur'atlari esa boshqa xizmatlar (99,5 %), shaxsiy xizmatlar (100,1 %), tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, %**



Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (88,7%) etakchilik qilmoqda. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari tashkil etadi. Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi. 2019 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 3847,7 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 31,5 % ni tashkil etdi.

## 2019 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 75,8 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,9% ni tashkil etdi. Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 8,3 % ni tashkil qiladi.

**2019 yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Jami			Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd.so'm	2018 yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	2018 yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan % da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>12 225,2</b>	<b>107,8</b>	<b>100,0</b>	<b>4 195,2</b>	<b>106,3</b>
shaharlar:					
Nurafshon	2 234,8	123,9	18,3	46 173,3	122,6
Olmaliq	765,6	105,4	6,3	5 893,7	103,9
Angren	569,8	105,4	4,7	3 050,6	104,0
Bekobod	488,0	101,6	4,0	5 147,5	100,2
Chirchiq	840,3	102,9	6,9	5 376,4	102,1
Ohangaron	230,1	103,6	1,9	6 186,6	102,0
Yangiyo'l	491,8	102,8	4,0	8 210,2	101,9
tumanlar:					
Oqqo'rg'on	300,2	101,8	2,5	2 886,1	100,3
Ohangaron	152,9	102,8	1,3	1 612,6	101,4
Bekobod	283,9	102,8	2,3	1 823,3	101,3

	Jami			Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd.so'm	2018 yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	2018 yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan % da
Bo'stonliq	594,2	107,0	4,9	3 539,1	105,9
Bo'ka	292,2	102,8	2,4	2 350,4	101,1
Zangiota	937,4	105,7	7,7	4 789,9	104,6
Qibray	1 035,6	109,5	8,5	5 211,7	108,0
Quyichirchiq	182,2	102,3	1,5	1 706,3	100,9
Parkent	433,8	106,3	3,5	2 836,9	104,5
Piskent	151,8	101,9	1,2	1 520,7	100,5
Toshkent	641,7	104,4	5,2	3 593,1	103,0
O'rtachirchiq	380,5	105,8	3,1	2 577,8	104,2
Chinoz	351,4	100,2	2,9	2 655,9	98,6
Yuqorichirchiq	363,1	106,4	3,0	2 713,6	104,8
Yangiyo'l	504,0	104,0	4,1	2 425,5	102,5

Hududlar o'rtasida eng yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon (123,9%), Olmaliq shaharlari (105,4%), shuningdek Qibray (109,5%), va Bo'stonliq (107,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng past o'sish sur'atlari esa Chinoz (100,2%) Oqqo'rg'on (101,8%) tumanlariga to'g'ri keladi. 2019 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4195,2 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,3% ni tashkil etdi.


## 2019-yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida – 46173,3 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 122,6 % tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng kichik xizmatlar ulushi Chinoz tumanida 2655,9 ming so'mni o'sish, sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (98,6 %), Oqqo'rg'on 2686,1 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (100,3 %), Bo'ka 2350,4 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (101,1 %) tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha  
jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi,%**



Viloyatda eng katta ulush Nurafshon (18,3 %), Qibray (8,5 %) va Zangiota (7,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Viloyatda eng past ulush esa Ohangaron (1,3 %), Quyichirchiq (1,5 %) va Piskent (1,2%), tumanlarida kuzatildi.

## 2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



**Boshqa xizmatlar  
3,2 %**



**Savdo xizmatlari  
31,5**



**Shaxsiy xizmatlar  
2,8 %**



**Transport  
xizmatlari  
25,7 %**



**Aloqa va  
axborotlashtirish  
xizmatlari 2,4 %**



**Moliyaviy  
xizmatlar 12,7  
%**



**Ta'lim  
sohasidagi  
xizmatlar 2,8  
%**



**Yashash va  
ovqatlanish  
xizmatlari 4,5 %**



**Kompyuterlar va  
maishiy tovarlarni  
ta'mirlash bo'yicha  
xizmatlar 2,3 %**



**Ko'chmas mulk  
bilan bog'liq  
xizmatlar 3,5 %**



**Sog'liqni  
saqlash  
sohasidagi  
xizmatlar 2,1 %**




**Me'morchilik  
muhandislik  
izlanishlari, texnik  
sinovlar va tahlil  
sohasidagi  
xizmatlar 3,4 %**



**Ijara xizmatlari  
3,1 %**

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida  
jami xizmatlarda kichik biznesning ulushi, %**



Viloyatda kichik biznesning eng katta ulushi Oqqo'rg'on (98,6 %), Quyichirchiq (97,7 %) va Yangiyo'l (97,9 %) tumanlarida kuzatildi. Viloyatda kichik biznesning eng past ulushi Nurafshon shahrida (6,8 %) tashkil etdi.

**Toshkent viloyat statistika boshqarmasi**

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

Mas'ul: M.Tastanbekov

Tel:(71)230-86-74